



LINGVODIDAKTIK TADQIQOT VA CHET TIL O‘QITISH METODIKASINI

LINGUISTODICATIC RESEARCH AND FOREIGN LANGUAGE TEACHING METHODOLOGY

Abdumutalova Dilnoza Davronbek qizi
Andijan davlat chet tillari instituti,
Ingiliz tili va adabiyoti fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar : Muqumjon Axunov Muhammadaminovich
(PhD) filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
E – mail : dilnoza774411@gmail.com
Tel : +998902051208

Abdumutalova Dilnoza
Student of Andijan State Institute of foreign Lanluages

Academic supervisor : Mukumjon Akhunov
(PhD) doctor of philosophy in philology,
assaociate professor

Annotatsiya:

Maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi lingvodidaktik tadqiqot va chet til o'qitish metodikasi talqinlangan. Ingliz va o'zbek tillaridagi lingvodidaktik tadqiqot va chet til o'qitish metodikasini muammolari qiyosiy tarzda amalga oshirilgan farqlanishi tillar o'rtasidagi metodikasini mazmunida ko'rsatib o'tiladi.

Kalitso'zlar: lingvodidaktika, metodika, o'qitish, kommunikativ, grammatika.

Abstract:

The article interprets the linguodidactical research and foreign language teaching methodology in English and Uzbek. The problems of linguodidactical research and



foreign language teaching methodology in English and Uzbek are compared and the differences between the languages are shown in the content of the methodology.

Keywords: linguodidactical, methodology, teaching, communicative, grammar.

Ma'lumki, chet tillarni o'qitishda tilshunoslik, pedagogika va psixologiya fanlari ba'zaviy fanlardan hisoblanadi. Chet til o'qitish metodikasi ushbu fanlarsiz o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erisha olmaydi va chet til o'qitish bilan bog'liq muammolarni xal qila olmaydi.

Tilshunoslik fanining metodika uchun asos fanlardan biri bo'lishiga sabab shuki, metodika ushbu fandan chet til o'qitish uchun zarur bo'lgan "xom-ashyoni" - til materialini (fonetik, leksik, grammatik materialni) oladi va shu til materiali asosida til o'qitishni tashkil qiladi.

Shu sababli ham o'tgan asrning boshlariga qadar, metodika fani tilshunoslik fanining bir qismi, sifatida talqin qilingan.

Mashhur olim, psixolog professor V.Belyayev metodika fanini psixologiya tizimidagi fanlardan biri ekanligiga e'tiborni qaratadi, chunki chet tilni o'rgatishdan ko'zlangan asosiy maqsad shu o'rganilayotgan chet tilida gapirish, tinglab-tushunish, o'qish va yozishga o'rgatishdan iborat. Bunga esa nutqiy ko'nikmalar ya'ni gapirish, tinglab-tushunish, o'qish va yozish ko'nikmalarini shakllantirmasdan turib erishib bo'lmaydi. Ushbu ko'nikmalar va ularni shakllantirish esa psixologik qonuniyatlar asosida amalga oshiriladi.

Ma'lumki, til bu sistema, u til kurilishi hakidagi tushunchalar, koidalar bilimlarni o'z ichiga oladi. Til aloqa vositasi sifatida qo'llanilishi uchun esa nutqiy faoliyatga chiqishi kerak, chunki til sistema sifatida, ya'ni til kurilishi xususidagi qoidalar, tushunchalar va bilimlar tarzida, nutqiy faoliyatga chiqmasdan turib kommunikativ funksiyani bajara olmaydi.

Nutqiy faoliyatni asosini esa nutqiy muloqotning psixofiziologik qonuniyatlari tashkil kiladi. Bu murakkab nutqiy mexanizm nutqiy muloqotni amalga oshiradi.

So'nggi yillarda nutqning hosil bo'lishi va nutqiy muloqot bilan bog'liq masalalarning yechimini topishga psixolingvistika fanining qonuniyatlari va ularda erishilgan yutuqlar katta yordam bermoqda.



Til sistemasini til modellari asosida o'rganish va ma'lum bilimga ega bo'lish mumkin. Ularni fonetik - fonologik, morfologik (so'z hosil qiluvchi), leksik - farazeologik, sintaktik, semantik va aralash modellarga ajratish mumkin. Aralash modellar psixologik xususiyatga ega bo'lganliklari uchun ham boshqa til modellaridan farq qilgan xolda nutqiy faoliyat bilan ham bog'likdir. Yozuvda til modellarini ifodalovchi turli shartli belgilar (S, V, O, R, R va x.k.) qo'llaniladi.

Aniq bir gapni o'z ichiga olgan nutqiy na'munani nutqiy model deyish mumkin. Ammo u til modelidan quyidagi sifatlari bilan farqlanadi:

Birinchidan, u anik bir nutqiy vaziyatga bog'lik va shu bilan bog'liq leksik birliklardan iborat;

Ikkinchidan, kommunikativ vazifa va muloqot mazmunidan kelib chiqib u logik urg'u va ritmiko - intonasion tuzilishini o'z ichiga oladi.

Buni darak, so'roq va undov gaplarni xosil qilinishida ko'rishimiz mumkin. Demak til modeli bilan nutqiy namuna bir-birlari bilan invariant va konkret variant munosabatida bo'ladi. (S.F.Shatilov)

Turli metodik adabiyotlarda va tadqiqotlarda lingvodidaktika atamasi ko'p qo'llanilmokda. Bu tillarni o'rgatish ilmi bo'lib, til o'kitish nazariyasi, tillar ta'limshunosligini o'z ichiga oladi va o'rganilayotgan tillarni o'qitish xaqidagi fan sifatida rivojlanmoqda. (J.J.Jalolov).

Xulosa qilib aytganda, milliy auditoriyada chet tillarni o'qitishni tashkil qilish lingvodidaktik taxlil qilish asosida amalga oshirilsa chet til o'rgatish va o'rganishning samaradorligi yanada oshadi va tillar aro interferensiyaning oldini olish va bartaraf qilish yo'llari osonlashadi.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdurahmonov G'. O'zbek tili gramatikasi.Toshkent1996 y.
2. Аракин В.Д.Практический курс английского языка. Владос 2000.
3. Бархударов Л. Граматика английского языка.М.1975.
4. Белеев Н. Граматика английского языка. М.1975.
5. Jalolov J. Chet tili o'qitish metodikasi.Toshkent 1996. Качалова К.Практическая граматика английского языка.М.2000
6. Kutiper U.B. Language. Orlando 1990 йил.



7. Mirzaev N. O'zbek tili.Toshkent 1994 yil.
8. Mirzaev N. hozirgi zamon o'zbek tili.Toshkent 1985 yil.
9. H.Brace. Adventure for readers.1989.
10. R.Murphy. Grammar in Use. Oxford 1994.
11. G'ulomov A. Hozirgi o'zbek adabiy tili.Toshkent 2003.
12. Hoshimov G'.M. Ingiliz tili o'qitish metodikasi.Toshkent 2003.
13. Xashimov G.M. Tipologiya slozhnogo predlozheniya v raznosistemnykh yazykakh,-Tashkent. Fan,1991.